XX ASR 20–30-YILLARIDA XORAZMDA XALQ TA'LIMI TIZIMI

Aminov Xurmatbek,
Xorazm Ma'mun akademiyasi
Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi kichik ilmiy xodimi

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19684465

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XX asrning 20–30-yillarida Xorazmda xalq ta'limi tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Xususan, yangi tipdagi maktablarning tashkil etilishi, savodsizlikni tugatish siyosati, pedagog kadrlar tayyorlash tizimi hamda maorif sohasida amalga oshirilgan islohotlarning mazmun-mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, mazkur davrda faoliyat yuritgan ilg'or o'qituvchilar va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Xorazm, XXShJ, Maorif nozirligi, Ko'hna Ark.*

Аннотация. *В данной статье на основе исторических источников анализируются этапы становления и развития системы народного образования в Хорезме в 1920–30-е годы XX века. Особое внимание уделяется созданию школ нового типа, политике ликвидации неграмотности, подготовке педагогических кадров и сущности образовательных реформ. Также освещается деятельность передовых учителей и их роль в общественном развитии региона.*

Ключевые слова: *Хорезм, ХНСР, Министерство образования, Куня Арк.*

Abstract. *This article analyzes the formation and development stages of the public education system in Khorezm during the 1920s–1930s based on historical sources. It highlights the establishment of new-type schools, literacy campaigns, teacher training systems, and the essence of educational reforms. The study also examines the contribution of prominent educators and their role in the social development of the region.*

Key words: *Khorezm, KPSR, Ministry of Education, Kunya Ark.*

Kirish. 1920-yil 2-fevralda Xivada muvaqqat hukumat tashkil qilingani haqida manifest e'lon qilindi. Yangi hukumat mamlakatdagi adolatsizliklarga barham berib, aholini keng qatlamini zamonaviy bilimlardan xabardor qilish maqsadida madaniy-ma'rifiy ishlarga ham keng e'tibor berdi. 1920-yil bahorida yangi hukumat tarkibida mulla Bekchon Rahmonov boshchiligida maorif va madaniyat nozirligi tashkil qilindi. Lekin yangi hukumat qo'lida yetarli mablag', maktablar uchun binolar, muallimlar, eng muhimi tajriba yetishmas edi. Respublikada yangi tipdagi maktablar 1920-yil bahorida tashkil qilina boshlandi.

Adabiyotlar tahlili. Dastlabki, boshlang'ich umumta'lim maktablari Xiva, Yangi Urganch, Kat, Darg'on ota shaharlarida paydo bo'ldi. Bu maktablarda darslar o'zbek va turkman tillarida olib borildi. Muallimlar yetishmasligi sababli eski maktab xodimlaridan foydalanildi. 1921-yilda shu muallimlardan 16 nafari yangi maktablarda ishlashga o'tgan edilar. Shu bilan birga maorif nozirligining maxsus topshirig'i bilan Xorazmdagi mavjud 1500 ga yaqin eski maktablar va 130

madrasalarning o‘quv dasturiga qisman o‘zgarishlar kiritildi, diniy bilimlar bilan bir qatorda tarix, jo‘g‘rofiya, arifmetika, o‘zbek tili va boshqa dunyoviy fanlarni ham o‘qitish haqida ko‘rsatma berildi. Bu harakatlar nafaqat Xorazmda, balki qo‘shni respublikalarda ham boshlangan edi.

Turkistonda “ilm-ma’rifat kuychisi” deb e’tirof qilingan Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining fikrlarini shunday bayon qiladi, “O‘rtadan nifoqni ko‘taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo‘ymanglar! Hammaga ozodlik yo‘lini ko‘rsatingizlar! Ozodlikni tezlik ila yuzaga chiqaringizlar! Bizlar ul choqda qabrimizda tinch yoturmiz!”. 1923-yil yoziga kelib XXSHJ dagi yangi tipdagi boshlang‘ich maktablar soni 29 ga etdi. Shuningdek, 9 ta maktab-internat va 3 ta ixtisoslashgan namuna maktablari faoliyat ko‘rsatgan. Ularda jami 1600 nafardan ortiq o‘quvchi yoshlar bilim oldilar[1].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tarixiylik, tizimlilik va qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Arxiv hujjatlari, ilmiy adabiyotlar hamda davriy manbalar asosida Xorazmda xalq ta’limi tizimining shakllanish jarayonlari kompleks tarzda o‘rganildi.

Tahlillar va natijalar. Respublika xalq maorifi katta yoshdagi aholi o‘rtasidagi savodsizlikni tugatish masalasiga ham alohida e’tibor berdi. Savodsizlikni tugatish maktablariga 17 yoshdan 35 yoshgacha bo‘lgan erkaklar jalb qilindi. Shahar va qishloqlarda savodsizlikni tugatish kurslari va maktablari ochildi. Ushbu maktablarda 1921-yilning o‘zida 410 kishi o‘qish va yozishni o‘rgandi. 1923-yilga kelib katta yoshdagilar uchun 20 ta savodsizlikni tugatish maktablari ochilib, ularga 767 kishi jalb qilindi. Porsu, Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot va Alieli tumanlarida qozoq va turkman tillarida ham ana shunday maktablar tashkil qilindi. Umuman respublika bo‘yicha 1920-1924-yillar davomida 1800 dan ortiq aholi savodsizligini tugatgan edi.

XXSHJ hukumati xalq maorifini qo‘llab-quvvatlash maqsadida imkon darajada mablag‘ni yildan-yilga oshirib bordi. Agar 1922-yilda shu maqsad uchun ajratilgan mablag‘ 42,2 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 1924-yilga kelib 253 so‘mga (oltin hisobida) yetdi. Shuningdek, respublikada maorif uchun xayriya jamg‘armalari to‘plash ham yo‘lga qo‘yildi. Lekin respublika maorif tizimida malakali kadrlar yetishmasdi. Bu muammoni hal qilish uchun, RSFSR va Turkiston ASSRda bo‘lganidek, XXSHJ da ham qisqa kurslar va maxsus o‘quv yurtlari ko‘plab tashkil etildi. 1920-yilda Xivada tashkil qilingan muallimlar tayyorlash uch oylik kursini 40 kishi tamomladi, 1921-yilda 100 kishi, 1922-yilda esa 92 kishi bitkazib, maktablarga yo‘llanma oldilar. Biroq qisqa kurslarni bitirib chiqqan bu muallimlar o‘quvchilarni faqat o‘qishga va yozishgagina o‘rgata olar edi, xolos. Chuqur bilim berishga ularni

malakasi yetishmasdi. Buning uchun esa, oliy ta’limni tashkil etish va uni rivojlantirish zarur edi[3].

1921-yil sentyabrda Xivada ochilgan Xalq universiteti respublika madaniy hayotida katta voqea bo‘ldi. Xalq xo‘jaligining turli sohalariga kadrlar tayyorlash uchun tashkil etilgan bu universitetda o‘qish 3 yilga mo‘ljallangan bo‘lib, dastlabki yilda unga 83 nafar mahalliy yoshlar qabul qilindi. 1922-yildan boshlab, Xivada qisqa muddatli kurslar o‘rniga uch yillik muallimlar seminariyasi ochildi. 1923-yilga kelib, bular pedagogika texnikumiga aylantirildi.

1923-yilda RSFRdan Xorazmga mahalliy tilni biladigan 23 nafar o‘qituvchi yuborildi. Ular Orenburg shahrida mahalliy o‘quv yurtini tamomlagan mutaxassislar edi. Yana 16 nafar o‘qituvchi shartnoma asosida ishlash uchun Xorazmga keldi. Shu bilan birga Xorazm Respublikasining bir qator o‘quvchi yoshlari Markaziy Osiyo va Rossiyaning markaziy shaharlariga o‘qishga yuborildilar. Chunonchi, 1923-yilda Toshkent, Moskva, Qozon, Orenburg va boshqa shaharlarga Xorazmdan 70 nafar, 1924-yilda esa 150 nafardan ortiq yigit va qizlar turli ixtisosliklar bo‘yicha o‘qishga yuborilgan edi. Ushbu bilim maskanlarida tahsil olgan yosh yigit-qizlar kelajakda elimizga munosib farzandlar tayyorlab, yetkazib beradigan ustoz murabbiy bo‘lib yetishdilar. Ustoz murabbiylardan Xorazm Maorif va madaniyat noziri Mulla Bekchon Rahmonov, birinchi o‘qituvchilardan Yusuf Ahmedov, G‘anijon Otajanov, Matyoqub Rajabov, Ollanazar Xudaynazarov, Xusayn Ismoilov, Quryoz Matjonov, Hadicha Bekchurina, G. Bekchurina, P. Davletov, Saodat Salimova, P. Paratov, X. Atajanov, X. Iskandarov, P. Abdullayev, A. Rahmonov, O. Yusupova, T. A. Rots, G. M. Bexer, Rahim Nazariylarni hukumatimiz va xalqimiz e’zozlab hozirgi kunlarda “Xalq ta’limi” muzeyida ularning suratlarini, shaxsiy hujjatlarini bir joyga jamlab hayot yo‘llarini aks qildiruvchi burchaklar tashkil qilingan.

Saodat Salimova – suronli yillarda xorazmlik o‘zbek ayollari orasidan yetishib chiqqan birinchi o‘qituvchilardan biri. U 1905-yilda Xiva shahrida tug‘ilgan. 1923-yilda o‘qituvchilar kursini tamomlab “Kommuna” maktabida savodsizlikni tugatish va yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda o‘z hissasini qo‘shgan. 1924-yilda Xiva xotin-qizlar pedogogik bilimgohi ochilgach, Saodat Salimova shu yerda birinchi o‘qituvchi, ilmiy bilim bo‘lim mudiri, so‘ng direktor lavozimlarida ishlagan. 1935-yilda Xiva tumani ma’orifi bo‘limiga mudir qilib tayinlangan. 1947-1951-yillarda qilgan mehnatlari uchun “Xalq ma’orifi a’lochisi” nishoni, hukumatning bir qancha orden, medallari va faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan. Saodat Salimova 39 yil mobaynida bir sohada uzluksiz ishlagan ta’lim sohasining jonkuyarlaridan edi. Hozirgi vaqtda Xiva shahridagi ko‘chalarning biriga Saodat Salimova nomi berilgan.

Xo‘janiyoz Iskandarov – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi, Xiva shahridagi savodsizlikni tugatishning faol ishtirokchisi, Xiva xonlarining Qibla Tozabog‘ saroyi yaqinidagi, hozirgi Tozabog‘ massivida dehqon oilasida tug‘ilgan. Shahardagi pedagogika bilim yurtining kunduzgi bo‘limini 1929-yil a’lo baholar bilan bitkazib shahardagi ko‘chma maktablardan birida dars bergan, 1937-yildan shahardagi Voroshilov (hozirgi Avaz O‘tar) nomli maktabda o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari bo‘lib ishlagan. 1945-yilda X. Iskandarov katta mehnatlari va xalq ta’limini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun hukumat tomonidan “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi” unvoni bilan taqdirlangan. Keyinchalik 1947-yilda “Mehnat qizil bayroq” ordeni bilan taqdirlangan. Xo‘janiyoz Iskandarov 1966-1987-yillarda Xiva shahridagi Gagarin, Kirov nomli o‘rta maktablarda matematika o‘qituvchisi bo‘lib ishlagan. Xo‘janiyoz Iskandarov oilada mehribon ota bo‘lib, turmush o‘rtog‘i Malikaxon Mahmudova bilan birgalikda 7 o‘g‘ilni tarbiyalagan.

Oyimjon Yusupova – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi, Xiva shahridagi savodsizlikni tugatishning faol ishtirokchisi. Shahardagi pedagogika bilim yurtining kechki bo‘limini 1936-yil a’lo baholar bilan bitkazgan. Shu yili Oyimjon Yusupova Xivadagi Polvon Qori madrasasida joylashgan “8-mart” nomidagi maktabda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga saboq berdi. Oyimjon Yusupova S. Salimova, D. Karimova, M. Otajonova kabi ma’rifatchi ayollar bilan birgalikda Xivada va Xorazmning chekka qishloqlarida savodsizlikni tugatishda faol qatnashdi. 1941-1945-yillarda Oyimjon Qo‘shko‘pir tumanidagi “Ko‘ktom” qishlog‘ida o‘qituvchilik qildi. 1945-yilda Xivaga kelib, shahardagi Voroshilov nomli maktabda ishlab, Xorazm davlat pedagogika institutining sirtqi bo‘limida ma’lumotini oshirgan. 1958-yilda Oyimjon Yusupova katta mehnatlari va xalq ta’limini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun hukumat tomonidan “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi” unvoni bilan taqdirlangan [2].

Oyimjon Yusupova yetuk mahorat egasi bo‘lib yoshlarga shunday ta’lim berganki, uning ko‘pchilik o‘quvchilari hali bugungi kunlarimizgacha ustozini nomini faxr bilan tilga olishib bizni savodimizni “Oyimjon muallim chiqargan” deb aytishadi. Yoshlarning mehribon ustozi Oyimjon Yusupova turmush o‘rtog‘i Bekchon Bobojanov bilan birgalikda yetti o‘g‘ilni tarbiyalab, o‘qitib ularni xalq xizmatiga qo‘ydi. Oyimjon Yusupova nafaqaga qadar Xiva shahri maktablarida o‘qituvchilikni davom qildirdi va bir qancha faxriy yorliqlar va medallar bilan taqdirlandi. Hozirgi vaqtda Xiva shahridagi ko‘chalarning biriga Oyimjon Yusupova nomi berilgan.

Xulosa. XX asrning 20–30-yillarida Xorazmda xalq ta’limi tizimi murakkab sharoitlarga qaramay izchil rivojlandi va yangi bosqichga ko‘tarildi. Amalga

oshirilgan islohotlar natijasida savodsizlikni kamaytirish, yangi maktablar tashkil etish va pedagog kadrlar tayyorlashda muhim yutuqlarga erishildi. Bu jarayonlar keyingi davr ta’lim tizimining shakllanishiga mustahkam asos bo‘lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Polvonniyoz hoji Yusupov. Yosh xivaliklar tarixi. – Urganch, 2000.
2. D. Bobojonov, M. Abdurasulov. Abadiyat farzandlari. – Xiva, 2009.
3. Xorazm viloyat davlat arxivi, fond № 754, ro‘yxat №1, hujjat №7.